

## AXBOROTLASHUV JARAYONINING JAMIYAT HAYOTIGA TA'SIRI

Abduxolikova Nasiba Alijonovna

Namangan davlat chet tillar instituti

v/b dotsenti falsafa fanlari doktori PhD

998 94 303 99 91; E-mail: : [abduholiqovanasiba@gmail.com](mailto:abduholiqovanasiba@gmail.com)

**ANOTATSIYA** Axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillarga har xil ta'sir qilishi barobarida uni iste'mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu eng avvalo, axborot manbalari miqdori o'rtasidagi farqda namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim odamlarda axborot manbai minimal (televidenie, radio), ayrimlarda esa keng (internet, yangi telekommunikatsiyalar tizimi) bo'lishi mumkin.

**KALIT SO'ZLAR** . axborot, axborotlashgan jamiyat, internet media makon, i'stemol madaniyati, kibernetika, Iqtisodiy samaradorlik.

**Kirish.** Yangi O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi bardavomlik axborot ta'minoti bilan bevosita bog'liq bo'lib, axborot global miqyosda biznesning yangi alohida turi bo'lib shakllanmoqda. Jamiyatning axborotlashuvi aholining turmush tarzi, aloqa va munosabatlariga ijtimoiy o'zgarishlarni kiritishi tabiiy holdir. OAVda tarqalayotgan axborotlar davlat, jamiyat va shaxsning moddiy va ma'naviy manfaatlariga mos tushishi bilan birga zararli bo'lishi ham mumkin. O'zbekiston Respublikasida kibermakondagi jinoyatlarning yangi turlari yoshlarning ijtimoiy qarash va mo'ljallariga ta'sir etib, yangi ijtimoiy axborot qadriyatlarini ham hosil etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar bizni oilamiz va do'stlarimiz bilan xavfsiz muloqot qila oladigan saytlar bilan ta'minlaydi. Bu holda kiberjinoyatchilar ijtimoiy tarmoqlarida insonlarning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlash va foydalanishda davom etadilar. Nafaqat ijtimoiy tarmoqlarda, balki bank kelishuvlarida ham barcha xavfsizlik" ta'minlanishiga e'tibor qaratganlar<sup>1</sup>.

Ijtimoiy makon - bu, ayni vaqtda axborot makoni hamdir. Globallashuv sharoitida axborot hajmining kattaligi, ularning zamonaviy tezkor vositalar orqali tarqatilayotgani axborot sohasining ijtimoiy makonning boshqa shakllaridan tubdan farq qilishini ta'minlamoqda. Xususan, zamonaviy ommaviy axborot vositalari

<sup>1</sup> Рахматов Д., Ахатов А. Кибер жиноятларни юзага келиш омиллари ва кибер этика: муаммо ва ечимлар// Science and Education Journal. 2021. – № 1(1) – Б. 227 ([www.openscience.uz](http://www.openscience.uz))



(ayniqsa, Internet tizimi) orqali tarqatilayotgan xabar va ma'lumotlarga turli siyosiy taqiqlar, davlat chegaralari to'siq bo'la olmaydi.

**Adbiyotlar taxlili.** Axborotlashuv kibernetika fani bilan bog'liq holda elektron hisoblash texnologiyasi, boshqaruv tizimining avtomatlashtirish bilan axborotlashuv jarayonida yangi sifat jihatlarini shakllantiradi. Axborotning aniqligi, obyektivligi, chinligi, aktualligi, tushunarli bo'lishi bilan muayyan ma'naviy ehtiyojni qondirib, zaruriy axborot qadriyatiga aylanadi. Axborotlashuvda kompyuter texnologiyalarining ommalashuvi, shaxsiy elektron qurilmalarining rivoji tufayli ta'lim tizimi, ayniqsa multimedia texnologiyalari yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida yangi imkoniyatlarni yaratdi. Rus olimlari kompyuter talabalar bilim doirasining kengayishidagi jihat va xususiyatlariga atroflicha batafsil tahlil va talqinlarini ochiqlantirgan.<sup>2</sup>

Jamiyatning axborotlashuv jarayoni har bir avlodning o'ziga xos ijtimoiy va kasbiy yangi axborot munosabatlarining madaniy taraqqiyot ko'rsatkichi sifatida muomalaga kiritmoqda. Ayniqsa, axborotlashuv jamiyat mehnat resurslarining iqtisodiyotda foyda olish uchun o'ta iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi. Fikrimizcha, kompyuter texnologiyalarining shakllanishi axborotlarni saqlash, uzatish va qabul qilish bilan qog'ozga bo'lgan ehtiyojning jiddiy tejamkorligini ta'minlaydi. Natijada, qog'oz ishlab chiqarishda sanoatning tabiatdagi o'simlik va hom ashyoga bo'lgan xarajatlarini jiddiy qisqartirdi.

Tadqiqotchi O. D. Raximov jamiyatning axborotlashuvi jarayoni ta'lim tizimi rivojini belgilashi xususida imkoniyat ma'nosida quyidagicha guruhlashtiradi: "Jamiyatning tizimli va doimiy ravishda kengayib rivojlanib borayotgan ilmiy, ishlab chiqarish va insoniyatning boshqa turdagi faoliyati davomida bosma shaklda to'plangan intellektual salohiyatidan keng va faol foydalanish;

fan, ta'lim, ishlab chiqarishni axborot texnologiyalari asosida integratsiyalash orqali umumjamiyat ishlab chiqarish barcha sohalarni jadal rivojlantirish, insonning mehnat faoliyatini jismoniy mehnatdan aqliy mehnat tomon yo'naltirish, insonning barcha faoliyat turlarini intellektuallashtirish;

axborot xizmatining yuksak darajaga ko'tarish, jamiyatning har qanday a'zosini ishonchli axborotlar manbasiga kirishi, foydalanish imkonining cheksizligi, taqdim

<sup>2</sup> Онков Л. С., Титов В. М. Компьютерные технологии в науке и образовании. – М.: Форум-Инфра. 2013. – С. 12.



etilayotgan materiallarning vizuallashtirish, ma'lumotlarning haqiqiyliги va hayotiyligini ta'minlash"da aks etadi<sup>3</sup>.

Axborot nisbiy ravishda daxlsiz bo'lib, tashuvchining shaklidan qat'iy nazar o'zining mazmun-mohiyatini saqlab qoladi. Axborotni olish kuzatish, tabiiy holda, tajribadagi hisobga ko'ra olinadi. Shuning uchun axborotni tajribagacha, tajriba vaqti va undan keyingi bochqichlarga bo'lish olimlar tomonidan qabul qilingan: pragmatik, semantik va sintaksis jihatlarini ajratib ko'rsatilgan<sup>4</sup>.

*Ayni paytda, axborotlashuv jarayoni bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi.* «Yumshoq erotika»dan tortib «ochiq pornografiya»gacha bo'lgan hodisalar bilan bog'liq muammolar ana shular jumlasidandir. Bunday holatlarning oldini to'lato'kis olib bo'lmaydi. Zero, axborot tarmoqlarining uzilishsiz ishlashi uning muhim sifatiiy belgisi hisoblanadi va bu jarayon doimiy takomillashuvni boshdan kechirmoqda. Demak, yuqoridagi kabi «muammolar» yo'lga qanchalik to'siq qo'yilmasin doimo ularni «aylanib» o'tish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Yana bir muammo mualliflik hamda intellektual mulk huquqining buzilishi bilan bog'liq. Shunday ekan, axborot tarmog'ida ko'pchilik ko'ra olmaydigan hududlar yuzaga kelishi tabiiy. Bugungi kunda kompaniyalar o'z axborotlarini himoya qilish va ruxsat etilmagan kirishlarning oldini olish uchun katta mablag'lar sarflayotgani ham shundan.

Shu bilan birga muayyan axborotlarni yashirishdan tortib, uni noqonuniy ravishda e'lon qilishgacha bo'lgan ko'rinishlarda namoyon bo'ladigan suiiste'molliklar ham kelib chiqishi mumkin.

Axborot turli ijtimoiy qatlamlar, professional va milliy guruhlar vakillarga har xil ta'sir qilishi barobarida uni iste'mol qilish amaliyoti turli guruhlarda bir-biridan keskin farq qilishi mumkin. Bu eng avvalo, axborot manbalari miqdori o'rtasidagi farqda namoyon bo'ladi. Masalan, ayrim odamlarda axborot manbai minimal (televidenie, radio), ayrimlarda esa keng (internet, yangi telekommunikatsiyalar tizimi) bo'lishi mumkin.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, bugungi kunda jamiyatda axborotni sotib olish, va uni sotish sohasida keskin bo'linish, tabaqalashuv sodir bo'lmoqda.

Yoshlar o'zining harakatchanligi va yangilikka intiluvchiligi hamda bo'sh vaqt resursiga egaligi tufayli yuqori darajada kommunikativ faollik ko'rsatishadi. Boshqa

<sup>3</sup> Рахимов О.Д. Аxborotlashgan jamiyat ta'lim tizimida zamonauiy axborot va pedagogik texnologiyalar – Qarshi.: TATU Qarshi filiali. 2014. – B. 6.

<sup>4</sup> История развития ИТ // <https://sites.google.com/site/inftehnology/it-kak-sistema/istoria-razvitia-it> (Дата обращения 06.12. 2021)



guruhlarda esa, nisbatan passivlik kuzatiladi. Ularga xos bunday xususiyatlar salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Bu birinchi guruh uchun tobora faollashayotgan agressiv siyosiy ta'sirga berilib ketish xavfining mavjudligida, ikkinchi guruhning esa, pozitiv mazmunga ega axborotlar ta'siridan tashqarida qolishi bilan belgilanadi.

### Xulosa

Iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy va boshqa sohalardagi axborotlar ta'sirlashuvi ijtimoiy hayotning mazmunan boyishi, takomillashuvining muhim omili hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bugungi kunda axborot almashinuvi insoniyat taraqqiyotining muhim shartiga aylandi deyish mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Рахматов Д., Ахатов А. Кибер жиноятларни юзага келиш омиллари ва кибер этика: муаммо ва ечимлар// Science and Education Journal. 2021. – № 1(1) – Б. 227 ([www.openscience.uz](http://www.openscience.uz))
2. Онков Л. С., Титов В. М. Компьютерные технологии в науке и образовании. – М.: Форум-Инфра. 2013. – С. 12.
3. Рахимов О.Д. Ахборотлашган жамият таълим тизимида замонавий ахборот ва педагогик технологиялар – Қарши.: ТАТУ Қарши филиали. 2014. – Б. 6
4. История развития ИТ // <https://sites.google.com/site/inftehnology/it-kak-sistema/istoria-razvitia-it> (Дата обращения 06.12. 2021)
5. Абдухоликова Н. А. //Талаба ёшларнинг онлайн алоқа холатининг салбий жихатлари // Фан таълим ва амалиёт интегратсияси. 2022 – № 3
6. Абдухоликова Н. А. //Жамият ахборотлашувининг ижобий салбий хусусиятлари // 3rd -International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education Hosted from Berlin, Germany № 7. 125-129–Б.

